

**Yangibozor tuman Xalq ta'lim bo'limi va "O'zbektelekom"AK Xorazm filiali  
Yangibozor telekommunikasiya o`rtasida tuzilgan №208372/18 sonli  
shartnomani huquqiy ekspertizadan o`tkazish yuzasidan  
X U L O S A**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ-5168-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari to'g'risida"gi Nizomga asosan Yangibozor tuman obodonlashtirish boshqarmasi va "O'zbektelekom"AK Xorazm filiali Yangibozor telekommunikasiya o`rtasida 2022-yil 10-yanvardagi №208372/18 sonli shartnoma loyihasini o`rganib chiqib huquqiy ekspertizadan o`tkazdim. Yuqorida nomlari ko'rsatilgan yuridik shaxslar o'rtasida tuzilgan telekommunikasiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi №208372/18 sonli mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 1998 yil 29 avgustdagi Qonunining 10, 20,21-moddalari talablari asosida tuzilgan shartnomaning umumiy summasi jami 2400000(ikki million to'rt yuz ming)so'mni tashkil qilib, shartnomani imzolagan Yangibozor tuman Xalq ta'limi bo'limi rahbari G.Jumanova va "O'zbektelekom"AK Xorazm filiali Yangibozor telekommunikasiya rahbari T.Ismoilovlar yuridik shaxs Nizomiga hamda chiqarilgan buyruqlarga asosan birinchi imzo huquqi berilgan.

Shartnoma imzolashda shartnomalarni tuzishning erkinligi, taraflarning o`zaro manfaatdorligi, shartnoma intizomiga rioya etish, taraflarning o`zaro mulkiy javobgarligi prinsiplariga to'liq rioya qilingan va taraflarning huquqlari hamda majburiyatlari aniq ko'rsatib o`tilgan.

**XULOSA QILINDI:**

Yangibozor tuman Xalq ta'limi bo'limi va "O'zbektelekom"AK Xorazm filiali Yangibozor telekommunikasiyasi o`rtasida 2022-yil 10-yanvar kuni №208372/18 sonli telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma loyihasi amaldagi qonun xujjatlari asosida ishlab chiqilganligi va qonunchilik texnikasi talablariga muvofiqligi qayd etilsin.

**Yangibozor tuman yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti:**



**U.Allamov**